

NUTQ USLUBLARI

Jabborova Xadicha Faxriddin qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

O'zbek tili va adabiyoti universiteti

3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada nutq uslublarining turlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari hamda qo'llanish doiralari yoritiladi. Asosiy e'tibor ilmiy, rasmiy-ish uslubi, badiiy, publisitsistik va so'zlashuv uslublarining o'zaro farqlari va metodik tavsiyalarga qaratilgan. Shuningdek, har bir uslub namunalar asosida tahlil qilinadi va o'quvchilarga nutq madaniyati yuksaltirishga yordam beruvchi tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: Nutq uslublarining turlari, rasmiy uslub, badiiy uslub, so'zlashuv uslubi, publisitsistik uslub, ilmiy uslub, uslubga xoslangan so'zlar.

Аннотация: В статье рассматриваются типы стилей речи, их специфические особенности и области применения. Основное внимание уделено различиям и методическим рекомендациям между научным, официально-деловым, художественным, публицистическим и разговорным стилями. Каждый стиль также анализируется на примерах, и учащимся даются рекомендации, которые помогут улучшить культуру речи.

Ключевые слова: Типы стилей речи, официально-деловой стиль, художественный стиль, разговорный стиль, публицистический стиль, научный стиль, стилистически специфичные слова.

Abstract: This article discusses the types of speech styles, their specific features and areas of application. The main attention is paid to the differences between scientific, official-business style, artistic, journalistic and colloquial styles and methodological

recommendations. Also, each style is analyzed based on examples and recommendations are given to students to help improve their speech culture

Keywords: Types of speech styles, official style, artistic style, colloquial style, journalistic style, scientific style, words specific to style.

Kirish: Til — inson tafakkuri, ma’naviyati va dunyoqarashining ifodasi bo‘lib, u ijtimoiy hayotda aloqa vositasi sifatida muhim o‘rin tutadi. Har bir nutq muayyan maqsad, vaziyat va auditoriyaga qarab shakllanadi. Shu sababli til vositalarining maqsadga muvofiq, izchil va mantiqli tarzda tanlanib qo‘llanilishi “nutq uslubi” deb ataladi. Nutq uslubi nafaqat tilning boyliklarini namoyon etadi, balki fikrni qanday ifodalash, qanday ta’sir qilish va qanday tushunilishini ham belgilaydi. U turli sohalarda, turli shakllarda namoyon bo‘lib, insonlarning muloqot madaniyatini belgilovchi muhim omil sanaladi. U yozma va og’zaki nutq davomida o‘z ijtimoiy vazifasini amalga oshiradi. Nutqning adabiy va shevalarga xos ko’rinishlari mavjud. Adabiy nutq so’z san’atkori yangi yozuvchilar, shoirlar, olimlar yordamidan ishlangan qat’iy me’yorlarga ega bo’lgan nutq chegaralar bilan belgilanadi. Adabiy nutq har bir so’z va qo’shimchaning talaffuzi, imlosi, foydalanilishi, ma’nolari aniq chegaralar bilan belgilangan. Ushbu me’yorlarni buzish qo’pol xato sanaladi. Odatda, barcha rasmiy yozishmalar, hujjatlar, o’qitish faoliyatları, matbuot xabarları adabiy nutqda amalga oshiriladi.

Adabiy nutq me’yorlarini buzish nafaqat savodxonlik va madaniyatsizlik, balki o‘z ona tiliga nisbatan hurmatsizlik belgisi sanaladi. Binobari, mana shu fan adabiy me’yorlarni o’rgatadi, unda foydalanish malakalarini takomillashtiradi. .¹

O‘zbek adabiy tilining nutq uslublari — bu til vositalarining turli ijtimoiy hayot sohalarida maqsadga muvofiq tarzda qo‘llanishidir. Ular o‘z vazifasi, mazmuni va ifoda shakliga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Adabiy til doirasida quyidagi besh asosiy nutq uslubi ajratiladi: rasmiy uslub, ilmiy uslub, badiiy uslub, publisistik uslub va so‘zlashuv uslubi.

¹

Rasmiy uslub davlat va ijtimoiy muassasalarda yuritiladigan hujjatlarda, farmonlar, qarorlar, ariza va bayonotlarda qo'llaniladi. Bu uslubning asosiy talablari — aniqlik, rasmiylik, lo'ndalik va normativlikdir. Unda shaxsiy ifoda vositalaridan foydalanilmaydi, gaplar odatda andozaviy shaklda bo'ladi. Masalan: "Mazkur qaror 2025-yil 1-iyundan kuchga kiradi."

Ilmiy uslub ilmiy tadqiqotlar, darsliklar, maqolalar, dissertatsiyalar va leksiyalarda qo'llanadi. Unda aniqlik, mantiqiylik, isbotlanganlik va terminlarga tayanish asosiy mezon hisoblanadi. Fikrlar izchil bayon qilinadi va dalillarga tayanadi. Masalan: "Nutq uslubi — bu vaziyatga mos tarzda til vositalarining tanlab qo'llanishidir."

Badiiy uslub adabiy-badiiy asarlar orqali ifodalanadi. Uning asosiy xususiyati — estetik ta'sir kuchi, obrazlilik, hissiylik va badiiy ifoda vositalarining (epitet, metafora, personifikatsiya va boshqalar) faol qo'llanishidir. Bu uslubda tilning imkoniyatlari eng to'laqonli tarzda namoyon bo'ladi. Masalan: "Tong nurlari daryo yuzida raqs tushayotgandek ko'rindan."

Publitsistik uslub ommaviy axborot vositalarida — gazeta, jurnal, televiedeniye va radio orqali axborot yetkazishda qo'llanadi. Bu uslubda faktlar tahlili va hissiy ta'sir uyg'otuvchi ifodalar uyg'unlashadi. Undan ijtimoiy-siyosiy voqealarga baho berish, ommani fikrlantirish, targ'ibot va tashviqot maqsadida foydalaniladi. Masalan: "Kelajak bugunning mehnatiga bog'liq!"

Ijtimoiy-siyosiy hayot masalalarini yoritgan barcha asarlar publitsistik asarlar jumlasiga kiradi. Bu janr o'zbek adabiy tili sistemasida XX asr boshlarida paydo bo'ldi. «Turkiston viloyatining gazetasi» chiqa boshlashi, so'ng matbuot va nashriyot ishlarining kengayishi, Furqat, Hamza, Ayniy, Sattorxon kabi demokrat shoirlarning ijodida targ'ibotning o'rini olishi publitsistikaning shakllanishiga turki bo'ldi. Vaqt o'tgan sayin bu janr yanada rivojlandi. Ayniqsa, keyingi davrda radio, matbuot televiedeniye va boshqalarning xalq hayotiga kirib borishi, ma'ruza, suhbatlarning o'tkazilib turilishi kabi omillar publitsistika taraqqiyotida muhim omil bo'ldi.

So'zlashuv uslubi og'zaki muloqot jarayonida — kundalik suhbatlarda, norasmiy yozishmalarda, do'stona muhitda ishlatiladi. Bu uslubga soddalik, erkinlik, hissiylik va

ba'zan dialektal unsurlar xosdir. U ko‘proq og‘zaki shaklda, bevosita muloqot jarayonida qo‘llanadi. Masalan: “Ha, yaxshi o‘tdi, ko‘rishamiz yana.”

Shuni ta'kidlash joziki, nutq uslublari tizimini tashkil etuvchi vositalarning bir-biri bilan o'zaro aloqasi ayni shu nutq uslubining asosiy vazifasidan kelib chiqadi. Masalan, ilmiy uslubning asosiy vazifasi-tabiyy va ijtimoiy hayot hodisalarini, muayyan fikrning mantiqiy isbotini aniq ta'riflash va izohlashdan iborat. Ilmiy uslubning mantiqiy xarakteri uning leksik-frazeologik va grammatik xususiyatlarida o'z ifodasini topadi.

Biroq nutq uslubiga xos jihatlar boshqa bir uslub tarkibida ham uchrashi mumkin. Masalan, ilmiy terminlar rasmiy, publitsistik va so'zlashuv kabi uslublarda ishlatalishi mumkin. Shunga ko'ra, nutq uslubi — ifoda vositalarining maqsadga muvofiq uyishgan tizimidan iborat deyish mumkin.

Adabiy tilning ijtimoiy hayotdagi ma'lum soha doirasiga, ma'lum nutqiy vaziyatga xoslangan ko‘rinishi nutq uslubi hisoblanadi. So‘zlar ma'lun nutq uslubiga xoslanish – xoslanmaslik belgisiga ko‘ra uslubiy xoslangan va uslubiy betaraf so‘zlarga bo‘linadi. Ayrim nutq uslubi doirasidagina qo‘llanadigan so‘zlar uslubiy xoslangan so‘zlar, bunday xususiyatga ega bo‘lmagan so‘zlar uslubiy xoslanmagan yoki betaraf so‘zlar deyiladi.

Tovush, urg‘u, bo‘g‘in, undalma, morfema, omonim, sinonim, uslubiyat kabi qator so‘zlar uslubiy xoslangan so‘zlardir. Sababi shu so‘zlar asosan tilshunoslik fani doirasida foydalilanildi. Osmon, xalq, bayram, o‘quvchi, dars, tushlik, salomatlik, odam kabi so‘zlar barcha nutq uslublari doirasida birdek qo‘llanish imkoniga egaligi tufayli uslubiy betaraf so‘zlar qatoriga kiradi. .²

Nutq uslublarini o‘quvchilarga qanday metod bilan o‘rgatish kerak? Degan savol dolzARB hisoblanadi

1. Taqqoslash va farqlash usuli

Bu usulda o‘qituvchi o‘quvchilarga bir mazmundagi matnni turli uslublarda taqdim etadi. O‘quvchilar matnlarni o‘qib, ularni uslubiy xususiyatlari ko‘ra taqqoslaydi va farqlaydi. Bu orqali ular har bir uslubning leksik vositalari, sintaktik qurilishi, ifoda ohangi va vazifasi haqida aniq tushunchaga ega bo‘lishadi.

Misol mavzusi: “Yoz” faslini har xil uslublarda ifodalash:

Ilmiy uslubdagi matn

Yoz — bu quyosh radiatsiyasi yuqori bo‘lgan, havo harorati o‘rtacha 25–35°C oralig‘ida bo‘ladi. Fotosintez jarayoni aynan shu davrda faol bo‘ladi.

Badiiy uslubdagi matn

Yoz kelganda tabiat uyg‘onadi: barglar qip-qizil quyoshda yaraqlab, yelkamizda issiqlik raqsga tushadi. Quyoshning har bir nuri yuragimizga iliqlik olib kiradi.

So‘zlashuv uslubidagi matn

Voy, yoz issiq bo‘lyapti! Hammamiz ko‘chada soyada yuramiz. Muzqaymoq yesang ham bo‘ladi, tag‘in.

Rasmiy uslubdagi matn

Yozgi ta’til 2025-yil 1-iyundan 31-avgustga qadar belgilandi. O‘quvchilar ushbu muddatda dam olishlari lozim.

Publitsistik uslubdagi matn

Yoz — bu nafaqat ta’til, balki yangidan energiya to‘plash va yangi marralarni ko‘zlash faslidir. Farzandlarimiz yozni kitob bilan o‘tkazsin!

Uslublarni taqqoslash jadvali

Uslub	Leksika	Gaplar	Maqsa	Ohang
	xususiyati	d		

Ilmiy	Terminlar	Mantiql	Izohlas	Neytral
	ga boy	i, rasmiy	h, isbotlash	
Badiiy	Obrazli	Hissiy, erkin	Estetik ta'sir	Emotsional
So‘zlash uv	Oddiy, kundalik	Erkin, qisqa	Muloq ot	Suhbatdosh ga mos
Rasmiy	Rasmiy so‘zlar	Qisqa, aniq	Axboro t berish	Qattiq, tartibli

Nutq uslublarini o‘rgatishda “taqqoslash va farqlash” metodi o‘quvchilarda uslubiy tafakkurni shakllantirishda nihoyatda samarali vosita hisoblanadi. Bu usul orqali o‘quvchilar turli uslubda berilgan matnlarni nafaqat tanib oladi, balki ularning leksik, sintaktik va pragmatik xususiyatlarini mustaqil tahlil qilishga o‘rganadi.

Mazmunan bir xil bo‘lgan matnlar turli uslubiy ko‘rinishda bayon etilganda, o‘quvchi har bir uslubning maqsadi, ifoda uslubi va kommunikativ yo‘nalishini anglaydi. Aynan shu jarayon orqali ular tilning boyliklarini qadrlaydi, kontekstga mos tilda fikr yuritish, muloqotda mos uslubni tanlash malakasiga ega bo‘ladi.

Shu boisdan ham “taqqoslash va farqlash” usuli o‘zida tahlil, ijodiy yondashuv va tanqidiy fikrlash elementlarini jamlagani sababli nutq uslublarini o‘rgatishda metodik jihatdan eng samarali yondashuvlardan biri sanaladi.

Amaliy topshiriqlar orqali nutq uslublarini mustahkamlash

Bu metodning asosiy maqsadi — o‘quvchilarning nazariy bilimlarini real nutqiy vaziyatlarda qo‘llashiga imkon yaratish. Ular mashq bajarish, yozma va og‘zaki nutq namunalarini ishlab chiqish orqali har bir uslubning o‘ziga xos xususiyatlarini amalda sinab ko‘rishadi.

1-topshiriq: Nutq uslubini aniqlash

Matn: “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga binoan 2025-yil 1-sentyabrdan boshlab barcha umumta’lim maktablarida raqamli texnologiyalar joriy etiladi.”

Vazifa: O‘quvchilar ushbu matnni o‘qib, qaysi nutq uslubiga mansub ekanini aniqlaydi.
To‘g‘ri javob: Rasmiy uslub.

2-topshiriq: Bir mavzuni 3 uslubda yozish

Topshiriq: “Bahor” faslini ilmiy, badiiy va so‘zlashuv uslublarida tasvirlang.

Ilmiy

Bahor — bu haroratning ko‘tarilishi, yomg‘irlar miqdorining ortishi va o‘simgiliklar vegetatsiyasi bilan tavsiflanadigan fasldir.

Badiiy

Bahor kelar kelmas yuragimda gullar ochiladi. Havo iforidan nafas olganimda, go‘yo yangi umidlar uyg‘onadi.

So‘zlashuv

Bahor bo‘ldi-yu, atrof ko‘m-ko‘k! Hamma bog‘ga chiqyapti, tabiat uyg‘onib ketdi.

3-topshiriq: Mos uslubni tanlash

Quyidagi vaziyatlarga eng mos nutq uslubini tanlang.

Vaziyat

Mos uslub

Ilmiy maqola yozish

Ilmiy uslub

Prezident nutqini tayyorlash

Publitsistik uslub

Darslik matnini yozish

Ilmiy uslub

Telegramda do‘st bilan yozish

So‘zlashuv uslubi

Farmon loyihasini tayyorlash

Rasmiy uslub

4-topshiriq: Matndan uslubiy xatolikni topish

Matn: “Hurmatli abituriyentlar! Iltimos, hujjat topshirishda o‘zingiz bilan zaybalashgan noutbuk olib kelmang.”

Xatolik: “zaybalashgan” — bu so‘z so‘zlashuv uslubiga xos bo‘lib, rasmiy murojaatda noo‘rin.

To‘g‘rilangan variant: “Hurmatli abituriyentlar! Iltimos, hujjat topshirishda shaxsiy noutbuklaringizni olib kelmang.

Amaliy topshiriqlar yordamida o‘quvchilar nutq uslublarini nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy nutqiy faoliyat orqali ham chuqur o‘zlashtiradi. Bu metod ularning tafakkurini faollashtirib, o‘z fikrini kontekstga mos va uslubga muvofiq tarzda ifodalash malakasini shakllantiradi.

Xulosa: Shunday qilib, nutq uslublarining nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganish tilshunoslik va ta’lim metodikasi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir nutq uslubi o‘zining leksik, grammatik va stilistik xususiyatlari, shuningdek, kommunikativ vazifalari bilan ajralib turadi. Uslublar tizimini chuqur anglash, ularni o‘quv jarayonida to‘g‘ri qo‘llash orqali o‘quvchilarda til madaniyati, uslubiy tafakkur va ifoda imkoniyatlarini rivojlantirish mumkin. Ayniqsa, til o‘rgatish metodikasida nutq uslublarini differensial yondashuv asosida o‘rgatish, o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini shakllantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli, nutq uslublari mavzusini o‘rganish metodik yondashuv asosida olib borilishi, zamonaviy ta’lim talablari nuqtayi nazaridan nihoyatda dolzarb hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Rahmatullayev G‘. O‘zbek tili uslubiyati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.

Foydalanilgan adabiyotlar:

2.Xudoyqulova.SH.Nutq uslublari.PEDAGOGS international research journal-T.,2022

3. Rahmatullayev G‘. O‘zbek tili uslubiyati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.

4. Madvaliyev N., Yusupov H. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan, 2006.
5. Qodirova D. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011.
6. Babaxanova D. «O‘ZBEK TILI USLUBIYATI» fanidan tayyorlagan o‘quv-uslubiy majmua materiallari-T., 2024/2025
7. Jumanova I. Nutq uslublari ularning o‘zbek tilshunosligidagi ahamiyati./WORLDLY KNOWLEDGE-T.,2023